

**MUSIQA TA'LIMI JARAYONIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK  
TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY MAROSIM QO'SHIQLARNING  
AHAMIYATI**

O.Tillaxo'jayev

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Musiqa ta'lumi kafedrasi o'qituvchisi*

M.Muminova

M.Muhammadjonova

M.Axrорova

Sh.Toshpo'latova

M.Fattoyeva

*Musiqa ta'lumi yo'nalishi 2-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu annotatsiyada musiqa ta'lumi jarayonida o'quvchilarda Vatanparvarlik tuygusini shakllantirishda oilaviy marosim qo'shiqlarning ahmiyati va o'rgatish, talabalarda ijro mahorati va qadriyatlargacha hurmatni shakllantirish borasida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, udum, tarbiya, marosim, qo'shiq, ta'lim, ijod, manaviyat, madaniyat, folklor, aytishuv, duet, yor-yor, alla, ta'lim, tarbiya.

**Annotation:** In this annotation, the importance and teaching of family ritual songs in the formation of the sense of patriotism in students in the process of music education, the formation of performance skills and respect for values in students is discussed.

**Key words:** value, tradition, education, ceremony, song, education, creativity, spirituality, culture, folklore, conversation, duet, yor-yor, god, education, education.

Oilaviy- marosim qo'shiqlarni musiqa madaniyati darslari jarayonida o'egaish, u orqali o'quvchilarni tarbiyalash murakkab pedagogik-psixologik jarayondir. Marosim qo'shiqlari o'quvchi yoshlarni keng miqyosda milliy ruhda tarbiyalashning ehh kuchli vositalaridan biridir. Xalq og'zaki ijodida til muhim rol o'ynaydi. Chunki til ushbu merosni ifodalashda va kelgusi avlodga yetkazishda eng asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Undagi ijodining tur va janrlari juda keng. Uning tarkibiga mif, afsona, rivoyat, ertak, maqol, matal, doston, masal, hikmatli so'zlar, tez aytish va boshqa janrlar, muxtasar qilib aytganda xalq merosining og'zaki ravishda ifodalanadigan barcha tur va janrlari kiradi<sup>27</sup>. Mana shu xalq qo'shiqlarining kompleks jihatdan ko'rindan o'ziga xos xususiyati (kuy, musiqa, qoshiqning matni, ijrochilik maxorati) uning insonga kompleks ta'sir qilishini ta'minlaydi. Oldingi paragriflardan malumki, qo'shiqning ijrosi ko'p yoqlama ta'sir ko'rsatadiki va uning musiqiy ifodasi insonning xissiyotiga, matni uning izchillari va ongiga ta'sir ko'rsatadi. Demak qo'shiqning ta'siri murakkab va kuchlidir. Qo'shiq matni o'quvchi ongiga ta'sir etishning doimiy omili sifatida kuyga jo'r bo'ladi va kuy ham ijroning ritmikasiga moslanishi lozim. Oilaviy marosim qo'shiqlarining tuzilishi elementlari o'quvchi shaxsining turli soxalariga ongi, irodasi izchisi, musiqiy idrokiga o'z xolicha ta'sir ko'rsatsa ham, ijro

<sup>27</sup> .O', Toshmatov.N.Isakulova.Nomoddiy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. T, 2015

etilayotgan qo'shiq va musiqaning jo'rligi yaxlid birgalikda idrok qilinadi. Ana shu ko'pyoqlama murakkab ta'sir ham yagona jarayon sifatida amalga oshadi. Marosim qo'shiqlarining mazkur ta'siri qo'shiq jo'rligisiz ijro etiladigan musiqaning ta'siridan kuchliroq bo'ladi. Chunki xalq qo'shiqlari uning tuzilishidagi elementlardan biri bo'lishi musiqaga nisbatan juda katta ta'sir doirasiga ega. Xalq qo'shiqlari kuyidan ana shu moslikni talab qilish mumkin xolos . Ammo qo'shiq kuyini qandaydir musyyan, doimiy bir xil talablari doirasiga kiritib qo'yish to'g'ri em ÿ.as. Binobarin qo'shiqda ham kuyida ham uyg'unlik, uslub, ta'sirchanlik fiodalash vositalarining xar xil turlari bo'lishi mumkin. "Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g'azalu naqsh aytur erdilar. Va turku mo'g'ul, xitoyu arab va ajamdir har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi", degan ma'lumotlarni keltiradi. Mustaqillik yillarida ulug' bobolarimizning ana shunday an'analarini davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko'plab ko'rik tanlovlari, nufuzli xalqaro anjumanlari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda"<sup>28</sup>Xalq qo'shiqlari faqat quvonchli.mulk,ko'tarinki xissiyotlarni uyg'otmaydi.U g'amchinlik,g'azablanish xolatlarini ham vujudga keltiradi Masalan :oilaviy marosim qo'shiqlarining asosiy namunalari insonning xayotiy yo'li bilan bog'liq muxim sana va voqealar asosida ijod etilgan'Xususan xalqimiz tamonidan o'tkazib kelingan beshik to'yi, muchol to'yi xatna to'yi, nikoh to'yi kabi oilaviy marosimlar zamirini bir necha o'nlab qo'shiqlar tashkil etadiki, bu qo'shiqlar bugungi kunda o'quvchilarimiz tomonidan ham sevib ijro etilmoqda. Xususan natna to'ylarida ijro etiladigan " Yaqu- yaq", " um - ufu", "Yallama – yorim" kabi nozirda ma'lum o'yin qo'shiqlar shu tarzda bizgacha yetib keldi.

Yallama, yorim, yalla,  
 Yallolashaylik, yallolashaylik  
 To'rtta – beshta bir bo'lib  
 Xasratlashaylik  
 Xasrat bog'indan.  
 Quralay ko'zingdan  
 O'ldira borsang, kuydura bor,  
 Shakau so'zingdan.

Oilaviy marosim qo'shiqlarini o'quvchi yoshlarni o'zi tug'ilib o'sgan joyini undagi rang barang urf – odःat marosimlar bilan bog'liq bo'lgan qoshiqlarni sevishga, ular bilar bog'liq bo'lgan an'analarni chuqur bilib olishga va bu kabi qadriyatlar orqali vatanimizning go'zal tabiatini urf – odःatlarini asrab avaylashga undaydi. Oilaviy marosiy xaqidagi qo'shiqlar o'z tematikasi jixatidan juda ham kengdir. Umuman kattalar yoki bolalar tomonidan yaratilgan xar bir qo'shiq o'zining mazmuni va ohang bilan katta tarbiyaviy ohanglarga egadir.Xalq qo'shiqlarini o'quvchilarga o'rgatish jarayonida uning sheriy mazmunini suxbat metodi orqali ham bayon etiladi.<sup>29</sup>Bu bilan o'quvchilarni ilmiy bilimlarni ko'taribgina qolmasdan balki o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan oilaviy marosim vatan, mehnat, lirik,

<sup>28</sup> Hakimov N. Istorija ispolnitelstva na narodnix instrumentov Sredney Azii.- D.: Irfon, 1989.- 160 s

<sup>29</sup> Shoda-shoda marvarid E.Ocholov.T.2003yil

xajviy ba hakazo qo'shiqlar asosida ularda ma'naviy sifatlar tarkib topdi tushunchasi kengayadi. Ollaviy marosim qo'shiqlari tematikasini kuylovchi xalq qo'shiqlari kamchilikni tashkil etadi. Milliy musiqa merosimizning kasbiy yunalishidagi ayniqsa maqom asarlari yuqori sinflar dasturidaqan mustahkam o'rin olgan, ammo bolalar, o'quvchilar ijrosi uchun moslashtirilgan halq qo'shiqlaeiga dasturga e'tibr berilmagan. Bu esa o'quvchilarni halqimizning necha asrlardan buyon ko'yylanib kelyotgan an'anaviy marosim, mavsum va turli janrlarni qamrab olgan kuy va qo'shiqlardan to'la qonli bahramand bo'lishlariga imkoniyat bermaydi. Natilada ularni ta'lim-tarbiya jarayonida mavsumiy marosim qo'shiqlarni o'rganishda, ya'ni milliy musiqiy merosimizni, qadriyatlarimizni yanada chuqurroq ahglab olishlarida qiyinchiliklar tug'diradi. Bularni bartaraf etish muommosidan kelib chiqayotdan sabablarga ko'ra faqat o'qituvchining zimmasiga yuklanadi. Bunda musiqa o'qituvchisi milliy tematik rejasini tuzayotganda rejaga bolalar ijrosi uchun mo'ljallangan o'zbek xalq kuyi va qo'shiqlarini kiritish mumkin. Yoki xalq qo'shiqlarini sinfdan tashqari musiqa tugaraklarida o'rgatib bayram kechalarida namoyon etishi mumkin.

O'quvchilar ongiga xalq musiqasi va qo'shiqlari xalqimizning dunyoqarashi, hayotiy voqeylekka munosabati, orzu istaklari va umuman manaviy dunyosini o'ziga xos inikos ettiradi. Bu esa ularga milliy qadriyatlarimizni ezozlashga millat xissini chuqur anglashga, o'z yeriga, ona yurtiga, iymoniga sodiqligi, har bir kishining milliy manfati bilan yashash, o'z xalqi dardini o'z dardlaridek o'ylabyashashga olib keladi. O'qituvchi o'quvchilarga dasturidagi asarlarni kuy, temp, ritm kabilarni o'zi xoxlaganicha o'zgartirish mumkin emas, bunda xar bir qo'shiqni ijro uslubini, yani uning so'z va ohang mazmunini tuzilishini e'tiborga olgan xolda o'quvchilarga o'rgatish maqsadga muofiqdir. Bu maqsadlarni amalgaloshirishda o'qituvchidan katta maxorat va vazifalar talab qilinadi.

1.O'quvchilarning mavzu mazmunini to'la tushunishga erishish .

2.Musiqa tinglash qo'shiq kuylash jarayonida o'quvchilarni musiqa ohanglarini diqqat va e'tabor bilan idrok qilishga o'rgatish.

3.O'quvchilarni musiqani sevishga . undan ematsional ta'sirlanishga o'rgatishi, o'quvchilardagi tetiklik, xushchaqchaqlik kayfiyatini qo'llab quvvatlash.

4. o'quvchilarni musiqaga hamoxang ravishda ifodali kuylashga o'rgatish.

5.O'quvchilarga o'rgatayotgan o'zbek xalq qo'shiqlari orqali vatanga muxabbat xissini uyg'otish.

6. O'organilayotgan qo'shiqlarni musiqa ohangisiz ham kuylay olish malakalarini shakillantirish.

7. O'quvchilarni ta'lim jarayoni yoki musiqa tugaraklarida emas, balki turmushda ham musiqa tinglashga bolalarda xavas ishtiyoq uyg'otish.

O'quvchilarni qo'shiq aytishga, shu bilan birga uni to'g'ri, buzmasdan aytishga o'rgartish, qo'shiq aytish ko'nikmalarini asta – sekin mustaxkamlab borish o'quvchilarning o'zlari qo'shiq aytganda o'z tuyg'ularini ifoda qila olishlari juda muximdir. O'quvchilar ohangni to'g'ri ijro etgan yabiy va chiroyli ovoz bilan, ifodali qilib kuylagan taqdirdagina, ularning qo'shigi' aytubchiga ham, tinglovchiga ham estetik zavq boqey etadi. Ular o'quvchilar musiqa darsini o'tishda quyidagilarga amal qiladilar . Ular qo'shiqni avvalo mazmuniga e'tabor beradilarki, qo'shiq nima haqida ekanligini badiy so'zlar orqali so'zlab

beradilar. Songra qo'shiqni chiroyli ohangda ikki yoki uch marotaba jonli ravishda kuylab beradilar. Qo'shiq insonni baxtiyor qiladi, unda ilohiy kuch mavjud.<sup>30</sup> O'qituvchining obrazga kirib kuylab va qo'shiq mazmunini so'zlab berishi o'quvchilarni qo'shiqqa maftun etadi. Bu esa o'qituvchilarni xalq qo'shiqlari mazmunidagi kechinmalarni anglashga yordam beradi. O'quvchilarning qo'shiq kuylovchiga e'tabor berishi, ularning o'rganilayotgan qo'shiqni tez o'zlashtirib olishlariga katta imkoniyat yaratadi. Darsda milliy musiqa oilaviy marosimlar xaqidagi qo'shiqlarni o'rganishda texnika vosetalaridan foydalanish muxim didaktik ahamyatga ega bo'lib, ongli o'zlashtirish vosetalaridan biridir. Oilaviy marosim xaqidagi qo'shiqlarni o'rganishga o'quvchilarga xalqimizning dunyoqarashi ma'nnaviy dunyosini marosim va urf – odatlarga bo'lган ongli tushunchani chuqur singdirishda o'quvchi ishini osonlashtiradi. Demak, musiqa darsining asosiy maqsadi milliy an'analarimizni, milliy ,musiqiy qadriyatlarimizni o'quvchilarga singdirish, o'z ona yurtin ing asl farzandi bo'lib yotishishi, insonparvar, milliy qadriyatlarimizni tushunchasini yurakdan xis qilishni o'rgatishda iborat.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karamatov F.M. "O'zbek xalq musiqa merosi" XXasrda I-kitob . Toshkent G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2003 yil
2. Akbarov I.A. Musiqa savodi darslik. Toshkent. 'Oqituvchi" 2003 yil
3. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. Toshkent G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 2007 yil
4. To'sayev V.I."Falklorni ansambili kak forma sovremenogo falklorezma . Nauka 2001 yil
5. Ibraximov O. o'zbek xalq musiqa ijodi, - metodik tafsiflar. Toshkent 2012 yil.
6. M.Djumabayeva. Methods of children's voice development in music culture lessons. ISSN 2277-3630 (online), Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 12 Issue: 02 in February-2023
7. M.Djumabayeva. Forming the quality of creativity in students by teaching the life and work of composer Sulaymon Yudakov.ISSN 2277-3630 (online), Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 12 Issue: 02 in February-2023
8. E.Qobilova Classical music and youth education Impact factor((Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 09, September 2022 SJIF 2022 = 8.625 A peer reviewed journal)
9. E.Qobilova Formation of creativity in preschool children by means of folk instruments using advanced foreign experience Impact factor(ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 10, Oct., 2022)
10. E.Qobilova Educationsinificance of teaching the history of Turkish Art and culture to students Impact factor Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research, under Volume 12. 02 february 2023

<sup>30</sup> Abdullaev R.S., Solomonova T.Ye. O'zbek musiqasi tarixidan xrestomatiya. T., 1983.

11. E.Qobilova Formation of creativity in preschool children by means of folk instruments using advanced foreign experience Impact factor(ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 10, Oct., 2022)